

**SHARTLI-PATOGEN MIKROFLORADA PATOGEN  
XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO'LISHIDA  
MAKROORGANIZMNING ROLI**

**Karakulov Anvar G'ulomovich**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti ixtisoslashgan  
Bolalar xirurgik klinikasi klinik laboratoriya bo'limi  
vrach-laboranti; Samarqand, Uzbekiston*

Makroorganizmdagi ba'zi normal mikroorganizmlar ma'lum sharoitlarda yuqumli kasalliklarning subklinik va klinik ko'rinishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda mikroorganizmlarning o'zini, ushbu mikroorganizmlar ishtirokida yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga olib keladigan sharoitlarni batafsilroq o'rganish, tashxislash, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi [1,2,3].

**Kalit so'zlar:** yuqumli kasalliklar, qo'zg'atuvchilar, kasallik, miroorganizm, normal microflora;

Yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini o'rganishga Lui Paster (1822-1895), Robert Kox (1843-1910) va boshqa ko'plab olimlar katta hissa qo'shganlar. Normal mikrofloraning patogenlik xususiyatlarini namoyon bo'lishida makroorganizmning o'zi ham ma'lum rol o'ynaydi.

Organizmning umumiyligi rezistentligining pasayishi ovqat hazm qilish yo'li shilliq pardalari, siyidik-tanosil tizimi, konyunktiva va boshqalarning, shu jumladan terining baryer funksiyalarining pasayishiga olib keladi. Organizmda immunokompetent hujayralar ishlab chiqarilishi, normal antitelolar, nospetsifik ingibitorlar miqdori va boshqalar keskin kamayadi. Bunday fonda himoya funksiyasini bajargan normal mikroflora patogen bo'lib qolishi va infektion jarayonni keltirib chiqarishi mumkin [2,3,4].

Yoki patogen mikroorganizmlar tushganida ular aralash infeksiya agentiga aylanishi mumkin. Bu ham normal mikrofloraning patogen xususiyatlarining namoyon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin [10,11,12].

**Ochlik.** Yuqumli kasalliklarga chidamlilikni pasaytiruvchi eng kuchli omillardan biri. Organizmning mikroelementlar va vitaminlar zahirasining kamayishiga olib keladi.

Doimiy to'yib ovqat yemaslik odatda odamlar orasida yuqumli bo'limgan va yuqumli etiologiyali ommaviy kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Agar ozuqlarda u yoki bu oziq moddalar yetishmasa (muvozanatsiz ratsion) yoki vitaminlar, makro- va mikroelementlar bo'lmasa, makroorganizmning o'zi

organizmning normal mikroflorasi faolligini oshirishga yordam beradi. To‘laqonli va yetarli darajada ovqatlantirish patogen va shartli patogen mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan yuqumli kasalliklarga qarshi organizmning chidamliligin oshiradi [9,10].

**Suv rejimi.** Suvni yetarli miqdorda iste’mol qilmaslik qonning quyuqlashuviga, ya’ni angidremiyaga olib keladi. Bunday holat yurak-qon tomir tizimi, markaziy asab tizimi, buyrak, oshqozon-ichak tizimi faoliyatini izdan chiqaradi va organizmning yuqumli kasalliklarga qarshiligin pasaytiradi.

**Temperatura.** Haddan tashqari yuqori yoki juda past harorat ham organizmning infeksiyaga chidamliligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Organizm qizib ketganda ham qon quyuladi va patologik belgilar paydo bo‘ladi. Sovqotganda, ayniqsa yosh mollarda shamollah va diareya kasalliklari (pnevmoniyalar, gastroenteritlar) paydo bo‘ladi, ular normal sharoitda namoyon bo‘lmaydi [1,2].

**Ionlashtiruvchi nurlar.** Ionlashtiruvchi radiatsiya organizmga ham mahalliy, ham umumiy ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy ta’sirda organizmning umumiy holsizlanishi kuzatiladi, tana harorati ko‘tariladi, teri, shilliq pardalar, oshqozon-ichak trakti, miya, yurak va o‘pkaga qon ketishi va qon quylishi paydo bo‘ladi. Moddalar almashinuvining buzilishi va dispeptik buzilishlar (ishtaha yo‘qolishi, ich ketishi) natijasida tana vazni keskin kamayadi [3,4].

Leykopeniya, trombotsitopeniya, anemiya boshlanadi; eritrotsitlarning cho‘kish tezligi (ECHT) ortadi. Gipoproteinemiya, gipoalbuminemija, qoldiq azotning ko‘payishi va xloridlar miqdorining kamayishi kuzatiladi. Immun sistemasi susayib qoladi, buning natijasida infektion asoratlar autoinfeksiyalar va autointoksikatsiyalar boshlanadi [5,6].

**Stresslar.** Oliy nerv faoliyatining zo‘riqishi natijasida susayib qolishi organizmning kimyoviy zaharlar, bakterial toksinlar, antigenlarga hamda mikroblar va viruslarning infektsion ta’siriga reaktivligini keskin kamaytiradi.

## Adabiyotlar

1. Kudratova Z. E. et al. Current modern etiology of anemia //Open Access Repository. – 2023. – T. 10. – №. 10. – C. 1-4.
2. Burxanova D. S., Umarova T. A., Kudratova Z. E. Acute myocarditis linked to the administration of the COVID 19 vaccine //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 23-26.
3. Кудратова З. Э. и др. Атипик микрофлора этиологияли ўткир обструктив бронхитларининг ўзига хос клиник кечиши //Research Focus. - 2022. - Т. 1. - №. 4. - С. 23-32.
4. Kudratova Z. E, Normurodov S. Etiological structure of acute obstructive bronchitis in children at the present stage - Thematics Journal of Microbiology, 2023. P.3-12.

5. Kudratova Z. E., Tuychiyeva S. K. Atipik mikroflora etiologiyali o'tkir obstruktiv bronxitlar etiopatogenezining zamonaviy jixatlari. Research Focus, 2023, B. 589-593.
6. Kudratova Z. E., Karimova L. A. Age-related features of the respiratory system. Research Focus, Tom 2, P. 586-588.
7. Исомадинова Л. К., Даминов Ф. А. Современная лабораторная диагностика хронического пиелонефрита у детей //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 49. – №. 2. – С. 112-116.
8. Isomadinova L. K., Daminov F. A. Glomerulonefrit kasalligida sitokinlar ahamiyati //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 49. – №. 2. – С. 117-120.
9. Isomadinova L. K., Qudratova Z. E., Shamsiddinova D. K. Samarqand viloyatida urotiliaz kasalligi klinik-kechishining o'ziga xos xususiyatlari //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 51-53.
10. Isomadinova L. K., Qudratova Z. E., Sh B. F. Virusli hepatit b fonida Covid-19 ning klinik laborator kechish xususiyatlari //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 30. – №. 3. - С. 60-65.
11. Isomadinova L. K., Yulayeva I. A. Buyraklar kasalliklarning zamonaviy diagnostikasi //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. - 2023. - Т. 2. - №. 10 Part 3. - С. 36-39
12. Kudratova Zebo Erkinovna, Tamila Abdufattoevna Umarova, & Sirojeddiova Sanobar. (2024). Modern types of immunoenzyme analysis methods old problems. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2(6), 67-70.